

ISSN 2181-7839

3
2016








XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

PUBLIC EDUCATION
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

www.xtjurnali.zn.uz



	TAHRIRIYAT	
	4	“Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligi barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim omilidir
	TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI	
	B. Daniyarov 6	Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’quv fanlarini o’qitishda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish masalalari
	Sh. Paxrutdinov 11	Hozirgi davrda ma’naviy-ma’rifiy tarbiya samaradorligini oshirish zarurati
	G. Anorqulova 16	Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda o’qituvchining kasbiy va pedagogik kompetentligi
	L. Kozlova 20	O’qituvchi subyektini rivojlantirishda intellektual salohiyatning ahamiyati
	S. Babadjanov 24	Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari
	K. Mavlonova 27	O’quvchilarni ona tili darslarida sintaktik qurilmalar bilan tanishtirish omillari
	TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI	
	U. Abdiyev 32	Fizika fani to’g’arak mashg’ulotlarida quyosh energetikasiga doir qiziqarli ma’lumotlarni o’rganish
	J. Kozimov, A. Odilov 38	Dars jarayonini o’yin metodlari orqali tashkillashtirish va samaradorlikka erishish usullari
	M. Axmedova, S. Yuldasheva 42	Bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og’zaki ijodining o’rni
	S. Irisova 47	Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda ertaklarning ahamiyati
	D. Qodirova, D. Maripova 52	Ona tili va adabiyot darslarida didaktik o’yinlardan foydalanishning o’ziga xos xususiyatlari
	TA’LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT	
	S. Ashirboyev 56	O’zbek dialektologiyasi ta’limi: yangilanish tamoyillari
	TA’LIMDA MENEJMENT	
	R. Ro’ziqulov 61	Xalq ta’limi tizimida nomzodlarni lavozimga tayinlashda ularning salohiyatini baholash mexanizmini takomillashtirish
	TA’LIMDA MONITORING	
	S. Imomov 66	Umumiy o’rta ta’lim maktablarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning monitoringini yuritish tizimini takomillashtirish
	HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA	
	M. Hamidova 72	Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqiy ta’lim va tarbiyaning o’rni

Klara MAVLONOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

O'QUVCHILARNI ONA TILI DARSLARIDA SINTAKTIK QURILMALAR BILAN TANISHTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada IX sinf ona tili darslarida qo'shma gap shaklidagi sintaktik qurilmalarning ekspressivligini ta'minlovchi omillar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish maqsadida olib boriladigan ta'limiy tadbirlarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Badiiy matn, sintaktik qurilmalar, sodda va qo'shma gaplar, sintaktik hodisalar, sintaktik figuralar, leksik takror, nutq madaniyati.

В данной статье изложены факторы, обеспечивающие экспрессивность синтаксических структур сложных предложений при ознакомлении с ними учащихся 9-х классов на уроках родного языка. Показаны возможности использования таких структур в целях развития культуры речи учащихся.

Ключевые слова. Художественный текст, синтаксическая структура, простые и сложные предложения, синтаксические явления, синтаксические фигуры, лексические повторы, культура речи.

Article describes the factors providing expressive syntactic structures of complex sentences. There are also presented the possibilities of the use of such structures in the development of speech.

Key words. Artistic text, syntactic structure, simple and complex sentences, syntactic phenomena, syntactic figures, lexical repeat, culture of speech.

Ona tili darslarida badiiy matnda ishlatilgan qo'shma gaplarni tahlil qilish yoshlarga sintaktik qurilmalarning serjilo ekanligini, ifoda quvvati kengligini anglatadi. Bunda so'zlarning nozik ma'nolari qo'shilib, fikrni yaqqol anglatadigan qila olishini ko'rsatish saboq berishning eng qulay usulidir. Shunday ekan, IX sinfda o'quvchilarni qo'shma gap shaklidagi sintaktik qurilmalarning ekspressivligini ta'minlovchi omillar bilan tanishtirish ularning nutq madaniyatini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu imkoniyatlar, birinchi navbatda, shu sinflar uchun ona tilidan yaratilgan darslikning nazariy ma'lumotlariga, ikkinchidan, tanlangan badiiy matnlarning til xususiyatlariga bog'liq.

9-sinf "Ona tili" darsligida berilishiga ko'ra, qo'shma gaplar "Sodda va qo'shma gaplar" (6-dars), "Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalar" (7-dars), "Qo'shma gaplar tasnifi" (8-dars) degan dastlabki mavzulardan so'ng quyidagi bo'limlar doirasida bayon qilingan: "Bog'langan qo'shma gaplar" (9-14-darslar), "Ergashgan qo'shma gaplar" (17-32-darslar), "Bog'lovchisiz qo'shma gaplar" (34-38-darslar), "Murakkab qo'shma gaplar" (39-43-darslar).

Darslikda "Bilib oling" rukni ostida qo'shma gaplar yuzasidan keltirilgan nazariy ma'lumotlar tasnif, ta'rif, tavsif, qoidalardan iborat bo'lib, ular mavzuga oid til birliklarining lisoniy tabiatini ochishga qaratiladi. Masalan, ko'rsatish olmoshli ergashgan qo'shma gaplar shunday tushuntiriladi: *"Bilib oling. Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlash uchun qo'llangan ergash gaplar bosh gapga -ki yuklamasi yordamida bog'lanadi. Bu yuklama bosh gap kesimi tarkibida bo'ladi va ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi.*

Ba'zan bu bo'lak qo'llanmasligi mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi" (24-dars).

Tabiiyki, bunday nazariy ma'lumotlar qo'shma gaplarning lisoniy xususiyatlarini o'rganish orqali nutq madaniyatini rivojlantirishning asosiy usuri – o'quvchilar nutqining to'g'riligini ta'minlash uchun xizmat qilishi aniq. 9-sinf "Ona tili" darsligiga N.M.Uluqov, D.A.Nurmonovalar tomonidan o'qituvchilar uchun mo'ljallab tayyorlangan metodik qo'llanmada o'quvchilarning egallashi zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar sirasida shunga yaqin maqsadlar ilgari surilgan: *"...bir fikrni qo'shma gapning turli ko'rinishlari bilan ifodalash, nutqda til birliklaridan to'g'ri foydalanish, aniq, izchil va mazmunli jumlar tuzish, so'zlashuv, badiiy, publitsistik, ilmiy, rasmiy uslublariga xos xususiyatlarni farqlash"*. Lekin maqsadlar haqida so'z yuritganda, mualliflar Davlat ta'lim standartiga havola qiladilar: *"Qisqasi, metodik qo'llanmaning bosh maqsadi ona tili fani bo'yicha Davlat ta'lim standartida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ona tili o'qituvchilariga metodik yordam ko'rsatishdan iborat"*.

Ona tili fanidan yaratilgan Davlat ta'lim standartida o'quv fanini o'qitishdan maqsad quyidagicha ifodalangan: *"...ona tili fani oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi"*. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, deya ta'kidlanadi DTSda, ona tili ta'limining mazmuni *"...o'quvchilarni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishni ta'minlash vazifalarini hal etishga yo'naltiriladi"*. "Keng imkoniyatlar" deganda tilning boyligi, jumladan, emotsional-ekspressiv vositalari ham nazarda tutiladi, albatta. Shunday bo'lgach, nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi uchun qo'shma gap turlarining ekspressivligini ta'minlovchi omillar tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Qo'shma gaplarni o'rganish jarayoni ularni anglashdan tashqari, qo'llanish xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi. Qo'shma gaplardan nutqda mohirlik bilan foydalanish saboqlarini esa ilmiy, publitsistik, badiiy va boshqa xil matnlardan olish mumkin. Badiiy matnlarni ana shu maqsad uchun xizmat qildirish orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini yangi pog'onalarga olib chiqish uchun keng imkoniyat eshiklari ochiladi.

Qo'shma gaplarning ekspressivlik ifodalash vositalari darslikdagi badiiy matn asosida tuzilgan mashq shartlariga qo'shimcha ravishda kiritilishi mumkin. 9-sinf "Ona tili" darsligida badiiy matnlar ko'p. Ularning mashq shartlarida mavzuga doir til birliklarini mustahkamlashga qaratilgan topshiriqlar o'z aksini topgan. Chunonchi:

48-mashq. Sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantiring.

Biz ham uning ketidan bozorga kirdik. Zarafshon vodiysida yetishtiriladigan ho'lu quruq noz-ne'matlar bari shu yerda. Ranglar-chi, tabiiy ranglar. Tog'ora-yu savatlarda katta Minorga o'xshatib terib qo'yilgan pomidorlar, anjirlar, xirmon qilib uyib tashlangan qovun-tarvuzlardagi oqu qora, ko'ku zangor – olamdagi hamma rang bir-biri bilan rang

talashadi. Ulardan taralayotgan muattar hid-chi?! Quyoshning nuri, yerning sharbatini shimib pishgan zilday bosvoldini qo'lingizga olib bir hidlasangiz, bemaol qovun polizga borib qaytganning savobini topasiz. (S. Anorboyev)

70-mashq. Ko'chiring, qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlang va ular o'rtasida qanday mazmuniy munosabat borligini ayting.

136-mashq. Ega ergash gapli qo'shma gaplarni topib ko'chiring. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni aniqlang.

140-mashq. O'qing, hol ergash gapli qo'shma gaplarni topib ko'chiring, ularning ma'no turlarini aniqlang.

167-mashq. O'qing. Siz kitobni qanday o'qishingiz haqida so'zlang. Matn tarkibidan murakkab gaplarni ajrating va bunday gaplar qismlarining o'zaro qanday bog'lovchi vositalar yordami bilan bog'lanayotganini aniqlang.

Ko'rinadiki, mashq shartlarida asosan o'rganilayotgan qo'shma gap turini, qismlarini o'zaro bog'lovchi vositalarni aniqlash, ba'zan ma'nosini tushuntirish mazmuni-dagi topshiriqlar o'z aksini topgan. Bunday topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilar tanishilayotgan til birliklarini anglash, to'g'ri idrok etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Ayrim mashqlardagina badiiy matnning g'oyasini izohlash so'ralgan. Bunday vaziyatlarda badiiy matnning tarbiyaviy jihatini nazarda tutmaganda, til hodisalarini o'rganishda boshqa uslubdagi matnlardan farqi bo'lmaydi. O'zbek tilidagi ifoda vositalarining boy (keng) imkoniyatlari ko'proq badiiy matnda namoyon bo'ladi. Ana shu imkoniyatlar sirasida qo'shma gaplarning ekspressivligini ta'minlovchi til birliklari alohida o'rin tutadi. Ularni aniqlash, badiiy matnning ushbu til birliklarini namoyish etish xususiyatlariga e'tibor berish zarur.

O'qituvchi o'zbek tilshunosligida ajratilgan, 9-sinfda o'tiladigan mavzular bilan bog'lash imkoniyati mavjud bo'lgan badiiy qiymat yaratuvchi, ekspressivlikni oshiruvchi sintaktik qurilmalarni belgilab chiqishi mumkin. Ushbu birliklar S.Boymirzayeva tomonidan bir qadar umumlashtirilgan. Muallif bu ish natijalarini o'zining "Badiiy matnda qo'shma gap" nomli monografiyasida tilshunos olimlar A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Ahmedov, S.Solixo'jayevaning fikrlariga tayangan holda amalga oshirgan.

S.Boymirzayeva bog'langan qo'shma gaplarga to'xtalar ekan, ba'zan ammo bog'lovchili qo'shma gaplar tarkibida *-u(-yu)*, *-ku*, *-ya*, *-da* yuklamalari ishtirok etib, ular qaysi komponent tarkibida ishtirok etgan bo'lsa, shu komponent semantikasini ta'kidlab, kuchaytirib kelishini aytadi. Bunda *-u(-yu)*, *-ku*, *-ya* yuklamalari asosan birinchi komponent predikatiga qo'shilib kelishi va zidlik ma'nosini yanada kuchaytirishiga e'tiborni qaratadi. *-da* yuklamasi ikkinchi komponent predikatiga qo'shilib, shu komponent ifodalagan ma'noning ekspressivligini oshirishini uqtiradi.

9-sinfda zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar mavzusi 11-darsda o'tiladi (26-bet). Ushbu mavzudagi nazariy ma'lumotni *ammo* bog'lovchili qo'shma gaplar tarkibida *-u(-yu)*, *-ku*, *-ya*, *-da* yuklamalari ishtirok etish holatida ekspressivlik paydo bo'lishi haqidagi izoh bilan boyitish mumkin.

S.Boymirzayeva to'siqsiz va shart ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar qo'shma gaplardagi zidlik mazmunini kuchaytiradi, deb ta'kidlaydi (35-, 42-betlar). 9-sinfda ergash gaplarning bu turlaridan biri – shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gaplar o'tiladi. Darslikda shunday ma'lumot beriladi: "Ergash gapning kesimi shart maylidagi fe'llar orqali ifodalanganda, shart mayli qo'shimchasi ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita ham sanaladi. Bunday ergash gaplar bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga chiqish yoki chiqmaslik shartini, paytini bildiradi".

Ushbu ma'lumotga qo'shimcha ravishda shart maylidagi fe'llar qo'shma gaplardagi zidlik munosabatini kuchaytiradi, degan izoh bilan to'ldirish foydadan holi emas. Badiiy matnda zidlik munosabatining kuchli ifodalangani yaqqol bilinib tursa, o'quvchilarning til birliklariga bo'lgan qiziqish va e'tibori yanada ortadi, ularda ehtiyotkorlik hissini tarbiyalaydi, nutq madaniyatini rivojlantiradi.

Muallif o'xshatish ergash gaplarni bosh gapga bog'lovchi vositalar keng sinonimik qatorga ega bo'lib, ularning vazifaviy uslublarda farqlanishini keng izohlaydi. Shunga ko'ra, *-dek* – og'zaki, badiiy, ilmiy; *-day* – og'zaki, badiiy; *kabi* – badiiy, ilmiy, publitistik; *singari* – badiiy, ilmiy; *go'yo* – badiiy; *xuddi* – og'zaki, badiiy; *yanglig'* – badiiy (62-63-betlar). Lekin o'xshatish ergash gap haqida 9-sinf darsligida ma'lumot berilmaydi.

S.Boymirzayeva *-ki* bog'lovchisi murakkab qo'shma gap komponentidagi ot bilan ifodalangan ega tarkibida qo'llanib, ma'noni kuchaytirish vazifasini ham bajarishini ta'kidlaydi. Masalan:

– *Hirotki bir olamdir, aning ichida Navoiy yangi bir olam barpo qilmoqdalar ... (N.); Shamki, to'g'ri, adildir – kuysa ham boshdan oyoq nur bo'lib kuyur (N.); Eronki, she'rining va ilmning xazinasidir, uning lisonini Oлло taolo ilhom chashmasi bilan sug'oribdir, bas, u lisonda yozmoq kerak... (N.). (72-bet)*

9-sinf darsligida bir necha ergash gapli qo'shma gap turlari 40-43-darslarda o'rganiladi. Ana shu darslardan birida imkoniyatga qarab *-ki* bog'lovchisining ana shu qo'llanish xususiyatiga to'xtalib o'tish mumkin.

Qo'shma gap turlariga xos bog'lovchi vositalar ma'nodoshligi, sintaktik qurilmalardagi shakliy o'zgarishlar munosabati bilan o'zbek tilshunosligida bir qator sintaktik hodisalar ajratiladi. Ushbu hodisalar sintaktik polisemiya, omonimiya, qo'shma gap tarkibidagi bosh va ergash gaplarning tartibi o'zgargan, sintaktik figuralar shakliga kirgan takror (anafora, infora, epifora), antiteza, inversiya, ellipsis, gradatsiya, parallelizm orqali yuzaga chiqadi. Bunday sintaktik qurilmalar nutqni (badiiy matnni) ohangdor, ta'sirchan va jozibador qiladi.

Qo'shma gaplardagi takror leksik takroni ifoda etadi. Leksik takror gap boshida bo'lsa anafora, gap oxirida bo'lsa epifora, biror ikkinchi darajali bo'lak takrorlansa, infora deb ataladi.

S.Boymirzayeva bosh gap bilan ergash gapning tartibidagi o'zgarishlar ekspressivlikni yuzaga keltirishiga alohida e'tiborni qaratadi. U bunday yozadi: "Bosh gapning ega tarkibi yoki butun bir predikativ tuzilma alohida ta'kidlansa, ergash gap bosh gapning o'rtasida yoki undan keyin keladi: *Oqshom, agar tinchlik bo'lsa, Zayniddinning uyida uchrashmoqqa til biriktirib, hujrani tark etishdi (N.); Mulozim yaqinda keltirilgan urushqoq qo'chqorlarni, agar u amr etsa, ko'rsatish mumkinligini bildirdi (N.). (43-bet)*

Ushbu sintaktik hodisa haqida ergashgan qo'shma gap turlarini o'tishda 8-sinfda o'tilganlarni takrorlash barobarida o'rniga qarab darslikdagi nazariy ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda qo'shma gap qismlarida tartib haqida tushuncha berish mumkin bo'ladi. S.Boymirzayeva quyidagi ikki gapni qiyoslaydi: 1. *Oqibati ne bo'lur, bilimaymen (N.).* 2. *Bilmadim, oqibati ne bo'lur (A.Yo.).* Mazkur sintaktik qurilmalarda bir xil mazmuniy munosabat ifodalangan bo'lsa-da, birinchisida inversiya hodisasi mavjud bo'lganligi uchun *Oqibati ne bo'lur* sintaktik qurilmasidagi ma'no alohida ajratilib, ta'kidlab ko'rsatilgan (51-bet).

Gaplardagi, butun matndagi ta'sirchanlik avvalambor so'z vositasida, qolaversa, sintaktik qurilmaning o'zi orqali yuzaga keltiriladi. Lekin sintaktik qurilma ushbu ta'sirchanlikni yana ham orttirib, bo'rttirib beradi. Masalan, 136-mashqda Said Ahmad asaridan keltirilgan quyidagi parcha misolida shunday ikki xil tasvir samarasini ko'ramiz:

Yomg'irdan keyin osmonda paydo bo'ladigan kamalak jahondagi jamiki ranglarni yettita ipga tortib turganga o'xshaydi. O'sha yetti ipni kim yoyib yuborsa, u olamni anvoyi gullarga burkaydiganday.

Odam bolasi borki, u shu ranglardan birini o'ziniki qilib oladi, butun taqdirini, tarjimai holini, orzu-umidlarini va, nihoyat, olamni shu rang orqali ko'radi. Shu narsa ayonki, tabiat ham shu rang ta'siriga tushib qoladi.

Matndagi "Odam bolasi borki, u shu ranglardan birini o'ziniki qilib oladi, butun taqdirini, tarjimai holini, orzu-umidlarini va, nihoyat, olamni shu rang orqali ko'radi" ergashgan qo'shma gapida ergash gap bosh gapga *-ki* vositasida bog'langan. "Odam bolasi borki" gapi bosh gap bo'lib, undagi fikr so'z vositasida alohida ta'kid kasb etgan.

Qo'shma gaplarda ma'no-mazmunning kuchaytirilishida qismlarining joylashish tartibi ham, ixchamligi ham, umuman, sodda gaplarda bo'lgani kabi sintaktik figuralarining rolini hisobga olish zarur.

Ma'lum bo'ladiki, sintaktik qurilmalarning ekspressivligi matn to'qimasida yana ham ta'sirchan, jozibali tuyuladi. Bunday tasvir usullari matnda ilgari surilayotgan fikr, g'oyaga yaqqol anglanadigan yo'nalish beradi. Ona tili darslarida o'qiladigan badiiy matnlarga so'z ishlatish mahoratidan tashqari, sintaktik qurilmalarning ekspressivligiga o'quvchilarning e'tiborini qaratish ularning nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mo'jaz tashkil qilinadigan ishlar ko'p vaqt olmaydi, lekin shu kichkina ta'limiy tadbir orqali yoshlarning shuuriga, qalbiga chuqur kirib borish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymirzayeva S. *Badiiy matnda qo'shma gap. Monografiya.* – Samarqand: SamDU nashri, 2008.
2. Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. *Ona tili: Umumta'lim maktablari-ning 9-sinfi uchun darslik.* – T.: Tasvir, 2009.
3. Nurmonova D.A., Uluqov N.M. *Ona tili: 9-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.* – T.: Tasvir, 2006.
4. *Ona tili fanidan Davlat ta'lim standarti (5-9-sinflar).* – T.: RTM, 2009.